Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillarini takomillashtirish.....	1017
Pardayeva Shahnoza Abidinabiyevna	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1022
Пулатова Сурайё Юлдашевна	



Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oilaviy korxonalarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rni va funksiyalari.....	1026
Tog'ayeva Dilnoza Azamatovna	
Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
Тула Нодирбек Баходир угли	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SMART-SHARTNOMALAR – RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN BIRI SIFATIDA

Yahyoxonov N. B.

PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Marketing” kafedrası dotsent v.b.



Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida marketingning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, smart-shartnomalarning o'ziga xos jihatlari va ularning xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rni va ta'sir maydonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli tranzaksiya, mayning, raqamli platforma, raqamli texnologiyalar, big data, blokcheyn, kontakt auditoriya.

Abstract: The article presents information on the possibilities and importance of using modern technologies of marketing in the context of the digital economy. Also, the specifics of smart contracts and their place in the service sector and areas of influence are covered.

Key words: digital economy, digital transaction, mining, digital platform, digital technology, big data, Blockchain, contact audience.

Аннотация: В статье представлена информация о возможностях и значении использования современных технологий маркетинга в условиях цифровой экономики. Также освещаются специфические аспекты смарт-контрактов и их роль в сфере услуг и сферах влияния.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые транзакции, майнинг, цифровая платформа, цифровые технологии, большие данные, блокчейн, контактная аудитория.

KIRISH

Bugungi global o'zgarishlar biznesda tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Kecha talab yuqori bo'lgan tovar va xizmatlar bugungi kunda ahamiyatsiz bo'lib qolmoqda. Bozorlarning to'yinishi, yuqori raqobat bosimi, iste'molchilar talablarining o'zgarishi, innovatsiyalarning shiddat bilan kirib kelishi biznesning raqamli transformatsiyasiga bo'lgan zaruriyatni oshirmoqda.

Prezidentimizning 2018-yil 3-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, mayning, smart shartnoma (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, kraud-fanding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, raqamli platformalarni joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli marketingni ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish, uning texnologiyalarini tadqiq qilish masalalariga xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Chaffey Dave, Desai Vaibhavalardan tomonidan raqamli marketing, uning strategiyalari va amaliy jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan¹.

1 Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2012). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice (5th Edition). Pearson. Desai, V. (2019, March). Digital Marketing: A Review. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), Special Issue Fostering Innovation, Integration and Inclusion Through Interdisciplinary Practices in Management, 196-200. Retrieved from <https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd23100.pdf>



Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari T. P. Danko, va O. V. Kitovalar Raqamli marketingni rivojlantirish masalalariga o'zlarining ilmiy ishlarida alohida e'tibor qaratishgan². Aleksandr Vyacheslavovich Frolov ishlarida Blokcheyn texnologiyalari asosida smart-shartnomalardan foydalanish yo'llari tadqiq etilgan³.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot, raqamli marketing ularga raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari Gulyamov S. S., Ayupov R. H., Ergashxodjayeva Sh. J., Sharifxodjayev U., Abduxalilova L. T. va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁴.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolani yozishda ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, integratsiyalashgan yondashuv, statistik, mantiqiy tadqiqot usuli, analiz, qiyosiy va vaziyatli tahlil yordamida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli platformalar, xususan, undagi "sotish voronkalari"ning xizmat ko'rsatish bozori ishtirokchilari o'rta-sidagi ishonchni ta'minlash mexanizmiga modifikatsion ta'sir etish xususiyatiga ega. 2019-yilda Gartner tadqiqotlar agentligi tomonidan keltirilgan strategik texnologik dolzarb mahsulotlar qatorida smart-shartnomalarga e'tiborning qaratilishi yuqorida keltirilgan xususiyatni namoyon etadi⁵. 1974-yil Ya. Makneyl tomonidan shartnomalar konsepsiyasining nazariy jihatlari o'rganilishi natijasida shartnomalarning qo'llanilishi va istiqboldagi natijaviyligini ta'minlashi bo'yicha asosiy mezonlar uchta guruhi ajratib berildi. Mazkur yondashuvga murojaat qilinadigan bo'lsa, smart-shartnomalarning ishtirokchilari o'rta-sidagi manfaatlar uyg'unlashuvining asoslanishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (1-rasm).

1-rasm: Smart-shartnomalarning istiqbolini belgilab beruvchi mezonlar xarakteristikasiga muvofiqligini ta'minlay olish tahlili⁶

Shartnomalar xarakteristikasi	Shartnoma istiqbolini belgilab beruvchi mezonlar xarakteristikasi		
	Klassik	neoklassik	munosabatli
Aktivlarning xususiyatlari darajasi	spetsifik bo'lmagan aktivlar	spetsifikasi sust aktivlar	spetsifikasi yuqori aktivlar
Transaksiyalarning chastotasi	bir martalik, muntazam ravishda	bir martalik, uzlukli	uzluksiz
Shartnomaning amal qilish muddati	qisqa muddatli	o'rta va uzoq muddatli	uzoq muddatli
Selektivlik darajasi va tomonlarning personifikatsion ahamiyati	selektivlik mavjud emas, shaxsiy munosabatlar darajasi nolga teng	tomonlar identifikatsiyasining mavjudligi	selektivlik darajasi yuqori bo'lib, kontragentni almashtirib bo'lmaydi
To'liqligi	to'liq	to'liq emas	to'liq emas
Jamoa moslashuvchanligi mexanizmi	mavjud emas	jamoa moslashuvchanligi mexanizmi kutilmagan sharoitlarga qaratilgan	jamoa moslashuvchanligi mexanizmi munosabatlarni saqlashda muhim ahamiyatga ega
Bitim shartlarining amalga oshirilishini ta'minlash mexanizmi	o'z-o'zini ta'minlaydi, sud tizimining roli passivdir	shartnoma shartlarini uchinchi shaxs tomonidan ta'minlaydi (arbitraj sudi)	o'zini-o'zi ta'minlaydi, uchinchi shaxs to'liq ma'lumotga ega bo'lmaganligi sabab, munosabatlarga aralasha olmaydi

2 O. A. Кожушко, И. Чуркин, А. Агеев и др. Интернет-маркетинг и digital-стратегии. Принципы эффективного использования: учеб. пособие; Новосиби. Budanov, V., & Aseeva, I. (2019). Manipulative marketing technologies in new digital reality. Economic Annals-XXI, 180(11-12), 58-68. doi: <https://doi.org/10.21003/ea.V180-07>. Инструментарий реализации маркетинговых интернет-технологий в биз-несе / Ю. А. Еременко // Модели, системы, сети в экономике, технике, природе и обществе. – 2017. – №3 (23). – С. 41–50.

3 Фролов А. Создание смарт-контрактов Solidity для блокчейна Ethereum. Практическое руководство. – ЛитРес, 2022. – ISBN 978-5-0419-2925-1

4 S. S. Gulyamov, R. H. Ayupov, O. M. Abdullayev, G. R. Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 404 bet. Ayupov R. X. va boshqalar. Uzbekistonda elektron biznesning rivojlanish istikbollari. –T.: "Format poligraf" nashriyoti, 2016, 205 bet. U. Sharifxodjayev, Z. Xakimov. Interaktiv va raqamli marketing. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2019.–271 b. Abduxalilova L. T. Internet marketing. – T.: Iqtisodiyot, 2019. 265 b. Ergashxodjayeva Sh. J., Qosimova M. S., Yusupov M. A. Marketing. Darslik.–T.: Iqtisodiyot, 2018.–315 b.

5 Gartner – tadqiqotlar va konslating kompaniyasi saytidan <https://www.gartner.com/en/information-technology/glossary/smart-contract>

6 N. P. Ivashyenko, A. Y. Shastitko, A. A. Shpakovalarning ilmiy qarashlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.



Istiqbolli munosabatlar qiymatligi	ahamiyatsiz	o'rtacha	yuqori
Rasmiy/norasmiy munosabatlarning ustuvorligi	ustunlik rasmiy munosabatlarga qaratilgan	ustunlik rasmiy munosabatlarga qaratilgan bo'lsa-da, norasmiy munosabatlar kuzatiladi	ustunlik norasmiy munosabatlarga qaratilgan
Rasmiylashuv va standartlashuv darajalari	rasmiylashtirilgan, standart formada	rasmiylashtirilgan, nostandart formada	rasmiylashtirish bir necha kelishuvlar asosida

Smart-shartnomalarni qo'llash imkonini mavjudligining darajalari

qo'llash imkonini mavjudligining darajasi maksimal

qo'llash imkonini mavjudligining darajasi o'rta

qo'llash imkonini mavjudligining darajasi minimal

1-rasmda keltirilgan tahlillar xizmat ko'rsatish sohasida biznes-hamkorlik muhitida smart-shartnomalarning qo'llash imkoniyati darajasi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, mazkur soha faoliyatida raqamli marketing instrumentlariga bo'lgan zaruriyatni hamda ulardan foydalanish natijalarini yanada oshiradi, xususan: xizmat turlari talabgorligi tadqiqotlari, ishlab chiqarish texnologiyalari, korxona biznes-modellari, strategiyalari hamda missiyalarining yangilanib turilishini ta'minlaydi.

Smart-shartnomalar dastlab moliyaviy bozorlarda kiritilgan bo'lsa-da, bugungi kunga kelib smart-shartnomalar savdo, logistika, ijara, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda istiqbolli foydalanish mumkinligini isbotlamoqda.

Smart-shartnomalarni joriy etishning ustun jihatlari quyidagi muhim ta'sir etuvchi omillari ajratib ko'rsatish mumkin, ya'ni:


- tranzaksion xarajatlarni kamaytirilishi;
- blokcheyn texnologiyalarni keng joriy etilishi hamda institutsional infratuzilmaning shakllanishi;
- avtomatik nazoratning olib borilishi.

Shu bilan birga, smart-shartnomalarni "external" va "internal" shakllantirish modellari mavjud bo'lib, mazkur tajribani mamlakatimiz amaliyotiga joriy etishni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Bitimlar" 9-bobida, O'zbekiston Respublikasi 29.08.1998-yildagi 670-I-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi 06.02.2019-yildagi O'RQ-518-son "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016-yildagi 185-son "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga smart-shartnomalarning huquqiy konstruksiyalari haqida tegishli qo'shimchalar kiritilishi lozimdir.

Smart-shartnomalarni joriy etishdagi yana bir ustunlik jihati uning ekotizimining tegishli dasturlar yordamida mahsulot yoki xizmat ko'rsatishning hayot sikli davrining har bir bosqichida raqamli va jismoniy muhitida yuzaga keladigan texnologik va biznes jarayonlar to'g'risida ishonchli va to'liq ma'lumotlar oqimini ta'minlaydi. Shuningdek, raqamli muhitdagi bitimlarni bajarilishi, xususan, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar uchun iqtisodiy boshqaruvining biznes modellarida qo'llanilishi smart-shartnomalar yordamida big data algoritmlari tomonidan moliyaviy va texnologik ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirishni amalga oshirish, ularni tasdiqlash va tekshirish imkonini yaratish orqali raqobatbardoshlik muhitini shakllantiradi (2-rasm).

2-rasmda smart-shartnomalarning xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rni va ta'sir maydonlarida keltirilgan harakatlari orqali raqamli muhitdagi o'ziga xos yangi marketing siyosatidagi yo'nalishlarni shakllanishi ham ko'rish mumkin, jumladan:

- xizmat qo'shilgan qiymatining oshirilishi. Bunda "raqamli texnologiyalar – raqamli (fizik) xizmat – raqamli (fizik) mahsulot – raqamli bozor" zanjirida har bir iste'molchi uchun shaxsiy servis xizmatini taklif etish orqali xizmatning qo'shilgan qiymatining oshishiga erishish;
- "raqamli texnologiyalar – raqamli (fizik) xizmat – raqamli (fizik) mahsulot – raqamli bozor" zanjiri asosida "raqamli (fizik) marketing – moslashtirilgan xizmat – shaxsiylashtirilgan servis" qiymatligiga ega bo'lgan xizmat ko'rsatishning mavqe'iga erishish;
- "raqamli (fizik) marketing – moslashtirilgan xizmat – shaxsiylashtirilgan servis" qiymatligiga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish orqali "xizmat ko'rsatish – raqamli marketing – mukammal qondirilgan ehtiyoj" munosabatlar mexanizmini yo'lga qo'yish imkonini mavjud bo'ladi.



2-rasm: Smart-shartnomalarning xizmat ko'rsatish sohasidagi o'рни va ta'sir maydonlari⁷

Smart-shartnomalarni algoritmik imkoniyatlari platformaga bog'liq va shuning uchun dastur tomonidan boshqariladigan va qayta ishlanadigan ma'lumotlar miqdori va tizimining salohiyatini e'tiborga olish ekotizimni ta'minlab turish uchun juda muhimdir, ya'ni:

- xizmat qiymatini oshirilishi;
- xizmat ko'rsatish jarayonining avtomatlashuvi;
- xizmat ko'rsatish sohasida smart-mahsulotlarning yaratilishi orqali hayot siklining kengayishi;
- elektron ma'lumot bazasi va undagi ma'lumot almashinuvidagi kiberxavfsizlikni ta'minlash;
- raqamli, smart va virtual mezonlar bo'yicha raqamli muhitning biznes faolligini oshishi kabilardir.

Savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatiga smart-shartnomalarning joriy etilishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli muhitni yaratib qolmasdan, raqamli marketing imkoniyatlari va faoliyatining natijaviyligini bir necha barobarga oshirish salohiyatiga egadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, Smart-shartnomalarni joriy etishdagi ustunlik jihati uning ekotizimining tegishli dasturlar yordamida mahsulot yoki xizmat ko'rsatishning hayot sikli davrining har bir bosqichida raqamli va jismoniy muhitida yuzaga keladigan texnologik va biznes jarayonlar to'g'risida ishonchli va to'liq ma'lumotlar oqimini ta'minlaydi. Shuningdek, raqamli muhitdagi bitimlarni bajarilishi, xususan, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar uchun iqtisodiy boshqaruvining biznes modellarida qo'llanilishi smart-shartnomalar yordamida big data algoritmlari tomonidan moliyaviy va texnologik ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirishni amalga oshirish, ularni tasdiqlash va tekshirish imkonini yaratish orqali raqobatbardoshlik muhitini shakllantirishi asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yahyoxonov N. B. Korxonalarda raqamli marketingdan foydalanishni takomillashtirish (xizmat ko'rsatish korxonalari misolida). Dissertatsiya. –TDIU, 2023.–B. 146.
2. Akst R. Chto takoe Smart-kontrakt. ili Ethereum za chas. –Ridero, 2017. –S. 19. –ISBN 978-5-4485-2907-8.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3. Dannen C. Introducing Ethereum and Solidity. – Brooklyn, New York, USA: Apress, 2017. –197 s. –ISBN 978-1-4842-2535-6.
4. Iyer K., Dannen C. Building Games with Ethereum Smart Contracts. Intermediate Projects for Solidity Developers. –Brooklyn, New York, USA: Apress, 2018. –281 s. – ISBN 978-1-4842-3492-1.
5. Бурков А. Ethereum: работа с сетью, смарт-контракты и распределенные приложения. – ЛитРес, 2020. –С. 542. – ISBN 978-5-0428-8384-2.
6. Фролов А. Создание смарт-контрактов Solidity для блокчейна Ethereum. Практическое руководство. – ЛитРес, 2022. – ISBN 978-5-0419-2925-1
7. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2012). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice(5 th Edition). Pearson.
8. Budanov, V., & Aseeva, I. (2019). Manipulative marketing technologies in new digital reality. Economic Annals-XXI, 180(11-12), 58-68. doi: <https://doi.org/10.21003/ea.V180-07>.
9. <https://www.gartner.com/en/information-technology/glossary/smart-contract>
10. <https://lex.uz>
11. <https://en.wikipedia.org>
12. https://www.fon.hum.uva.nl/rob/Courses/InformationInSpeech/CDROM/Literature/LOTwinterschool2006/szabo.best.vwh.net/smart_contracts_2.html

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.